

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA QO'LLANILADIGAN DARS TURLARI VA INTERFAOL METODLAR

Raximboyev Farrux

O`zbekiston davlat Jismoniy ta`riya va sport universiteti magistranti.

Ilhamjanova Dildora

Toshkent gidrometeorologiya texnikumi "Maxsus fanlar" kafedrasi mudiri .

Maxamatova Xurshida

Toshkent gidrometeorologiya texnikumi maxsus fan o`qituvchisi.

Annotasiya: *Hayotimizning barcha sohalari kabi ta'lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash yoshlarimizni bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir*

Kalit so'zlar: *Professional ta'lim, pedagogik konsepsiya, didaktik vositalar, component, Pedagogik texnologiya*

Respublikamizda professional ta'lim muassasalarida ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, faol va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning modernizatsiyalashayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish bilan birga kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yaratildi. O'qitish metodikasini takomillashtirish va optimallashtirish, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini integrativ qo'llash bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borildi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida malaka talablari bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik shartsharoitlari, mexanizmi, metodlari hamda texnologiyalarini ishlab chiqishga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning ijodiy fikrlash, mustaqillik, faollik munosabatlarining boyib borishi, dunyoqarashlarining o'sib borishi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari, shuningdek, o'qituvchilar uchun ham ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli hisoblangan kasbiy bilim, ta'lim sifati, kompetentlik va darajali mezonlar asosida rivojlantirish hamda

o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Bo'lajak mutaxassislar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi.

Taniqli olim N.A.Muslimovning ta'kidlashicha, ijodkorlikni tadqiq qilish mustaqil ta'lim olish va ijodiy individuallikni rivojlantirish maqsadida ijodkorlik jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishning ijodiy jarayonni innovasion amaliyotda modellashtirish (aynan yaratuvchanlik faoliyatda shaxsning kreativ potentsiali rivoj topadi) bilan bog'liq maqbul shakllarini aniqlash imkonini berdi. Bu o'rinda yuzaga keladigan murakkablik ijodiy hamkorlik faoliyatini yaxshiroq tashkil qilish hamda boshqarish bilan belgilanadi, zero, bunda ongli ijodiy individuallikning to'g'ridan-to'g'ri anglanmaydigan jarayonlari ham shakllanadi⁹.

M.Maxmutov ijodiy faoliyatni bunday ta'kidlagan edi, ijodiy faoliyat – evristik faoliyat bo'lib, uning mohiyati muammoni tez tushunishdan, asosiy g'oya, tushunchaning mohiyatini anglab yetishdan, harakat usulini tezlikda topishdan iboratdir. Bunday faoliyat yuqori jo'shqinlik, sub'yektning ob'yektga katta qiziqishi bilan tavsiflanadi. Bo'lajak mutaxassisning ijodiy faoliyatda ishtirok etishiga J.Gilford, A.Maslou va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan¹⁰.

A.A. Verbiskiyning fikriga ko'ra, ijodkorlikni tadqiq qilish mustaqil ta'lim olish va ijodiy individuallikni rivojlantirish maqsadida ijodkorlik jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishning ijodiy jarayonni innovasion amaliyotda modellashtirish (aynan yaratuvchanlik faoliyatda shaxsning kreativ potentsiali rivoj topadi) bilan bog'liq maqbul shakllarini aniqlash imkonini berdi. Bu o'rinda yuzaga keladigan murakkablik ijodiy hamkorlik faoliyatini yaxshiroq tashkil qilish hamda boshqarish bilan belgilanadi¹¹ zero, bunda ongli ijodiy individuallikning to'g'ridan-to'g'ri anglanmaydigan jarayonlari ham shakllanadi.

Ijodiy faoliyatning mohiyatini tavsiflab, A.V.Petrovskiy va M.T.Yarashevskiy uning psixologik belgilariga e'tiborni qaratishadi. Bu talabalarda ijodiy jarayonda psixik axloqiy sifatlarning, estetik hislarning, intellektual qobiliyatlarning rivojlanishi va bilimlarni egallanishi hisoblanadi. Psixologiya nuqtai nazaridan ijodkorlik jarayonining o'zi – ijodkorlikni rivojlantirishning metodlari, shakllari va ijodkorlikni rivojlantirish vositalaridir.

Insonning borliq to'g'risidagi barcha bilimlarining boshlang'ich manbasi sifatida psixologlar sezish va idrok qilish jarayonlari deb hisoblashadi. Sezish

⁹ Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий – методик асослари.: Дис. ... пед. фан. докт. – Т.: 2007. – 275 б

¹⁰ Махмутов М.И., Ибрагимов Г.И., Чошанов М.А. Педагогические технологии развития мышления учащихся. - Казань: 1993, 88 с.

¹¹ Гилфорд Дж. Intelligence, creativity, and their educational implications. 2010.

predmetlarning yaqqol obrazidir. Badiiy ijodga va amaliy faoliyatga o'rganish jarayoni uchun, ayniqsa, muhimi ko'rish orqali sezish hisoblanadi.

S.L.Rubinshteynning fikriga ko'ra, sezish faqat his etish obrazigina emas, balki predmetning yoki hodisaning tegishli sifatiga yo'naltirilgan bilish faoliyati bo'lib ham hisoblanadi. Olim sezishni tadqiq etib: "sezish insonning hal qilayotgan masalasiga bo'lgan munosabatiga bog'liq holda jiddiy siljiydi" deb ta'kidlaydi.

Psixologlar idrok qilishning beshta asosiy turini ajratishadi: ta'm bilish, hid bilish, eshitish, ushlab bilish va ko'rish. Idrokning yetakchi xossalari sifatida predmetlilik, yaxlitlik, anglanganlik, tuzilmaviylik, konstantlik va saylovchanliklar ishtirok etadi.

Shuningdek, idrok o'z ichiga farqlash, ko'rib tanib olish, o'lchash, nazorat, baholash va boshqa harakatlarni oladi. Tashqi dunyo predmetlari va hodisalarini idrok qilish bo'yicha faoliyat hayot jarayonida hamda idrok qilish ob'yektlari ustida amaliy ish olib borish jarayonida shakllanadi.

E.G'oziyevning ta'kidlashicha ta'lim jarayonida idrok maqsadga muvofiq perseptiv faoliyatga aylanib va tobora murakkablashib boradi, natijada talabada kuzatish, nazorat qilish, farqlash imkoniyati oshadi. Idrokning takomillashuvi o'qituvchining bevosita rahbarligida amalga oshadi. Idrokning rivojlantiradigan muhim vositalaridan biri narsa va hodisalarning o'xshash va farqli alomatlarini ajratish uquvini tarkib toptirishdir.

Kasb ta'limida pedagogik ijodkorlik dinamik hodisa, murakkab ochiq tizim, shaxs hayotiy dasturi sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ijodkor o'qituvchi pedagogik faoliyatning reproduktiv usuli va ijodkorlikdan birini tanlashda nafaqat o'zligini, hayotiy maqsadlarini ro'yobga chiqaradi, u o'zini sifat jihatidan o'zgartiradi, psixologik to'siqlarni yengadi, kasbiy ahamiyatli sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini qidiradi, o'z pedagogik konsepsiyasini ishlab chiqadi. Umuman olganda, o'qituvchining pedagogik faoliyati uchun birinchidan innovasion yo'naltirilgan, ikkinchidan, ijodkorlik faoliyati jarayonida individuallik sifatida o'ziga yo'naltirilganlik xos bo'ladi.

Bizning fikrimizcha ijodkorlik jarayonida inson o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishdan avval juda ko'p to'siqlarni yengib o'tishi, aqliy va jismoniy kuchlarning zo'riqishi, o'z harakatlarini ongli ravishda tartibga solishi iroda deb ataladi. O'quv jarayonida va ijodkorlik faoliyatda, ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlarini shakllanishida ko'p narsalar irodaga, qiyinchiliklarni yenga olish ko'nikmasiga bog'liq bo'ladi. Irodali ta'sir bu ongli harakat bo'lib, unga erishish uchun rag'batlantiruvchi kuch sifatida juda turli tuman ehtiyojlar xizmat qilishi mumkin. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini o'qitishda yordam beruvchi eng yaxshi ehtiyoj

texnik va texnologik jarayonlarda tayyorgarlik ishlari malakalarini egallashga, loyiha faoliyatini va o'ziga xos kasbiy bilimlarni egallashga intilishi hisoblanadi.

Oliy kasbiy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilim, ko'nikmalarni amaliyotga tatbiq etish, balki kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan vaziyatlarda o'ziga xos va innovasion qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan malakali bitiruvchini tayyorlashdir. Shunga ko'ra, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining ijodkorligini rivojlantirish jarayoni yetarlicha o'rganilmaganligi, nazariy va amaliy ahamiyati ilmiy asoslanmaganligi, masalaning ilmiy-pedagogik va amaliy nuqtai nazardan muhimligi, ijtimoiy-pedagogik, va bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash uchun yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi.

Talabalar tomonidan olinadigan oliy kasbiy ta'lim nafaqat bilim, ko'nikmalarni rivojlantirish bilan birga, bitiruvchilarning professional ijodkorligini, o'z-o'zini namoyon qilishi uchun real imkoniyat yaratadi. Shu munosabat bilan, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirish ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi. An'anaga ko'ra, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kreativligi maxsus fanlarni va ixtisoslik fanlarini o'zlashtirishda rivojlanadi. Biroq, faqat professional ko'nikmalarni rivojlantirib, ijodkor bitiruvchini emas, balki barkamol shaxsni tayyorlash mumkin. Shu munosabat bilan, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining ijodkorligining rivojlanishi uchun pedagogik shartsharoitlarni aniqlash zarur, chunki bu muammo yetarlicha o'rganilmaganligicha qolmoqda.

Pedagogik faoliyat amaliyoti ko'rsatishicha, o'qitishning mohiyati talabalarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, ilgarigidek o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Oqibatda talabalarda haddan ziyod axborotning behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning befoydaligi va uning haqiqatdan uzoqligi kabi fikrlar paydo bo'ladi. Talaba real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to'planib kelgan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek bo'lib qoladi.

Kasb ta'limiga oid zamonaviy adabiyotlarda pedagogik jarayon quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan komponentlar tizimidan iborat deb ta'kidlanadi:

- 1) faoliyatning maqsadlari;
- 2) ta'lim beruvchi;
- 3) ta'lim oluvchi;
- 4) faoliyat mazmuni;
- 5) faoliyat shakllari;
- 6) faoliyat vositalari va usullari;

7) faoliyat natijasi¹².

Ta'lim jarayoni tizimini hosil qiluvchi tushunchalar - ta'limning maqsadi, ta'lim beruvchilarning faoliyati (o'qitish), ta'lim oluvchilarning faoliyati (o'qish) va natija hisoblanadi.

Ta'limning maqsadida jamiyat taraqqiyotining asosiy g'oyalariga mos keladigan mutaxassisning tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar majmuasi aks etadi. Ta'lim jarayonini tashkil etish paytida maqsadlar oydinlashtiriladi, aniq-ravshan shakllantiriladi. Maqsadlarni aniqlashtirishning o'ziga xos mantiqiy zanjiri quriladi:

- jamiyatning umumiy talablari;
- ta'lim tizimining vazifalari;
- muayyan ta'lim muassasasining maqsadlari;
- mutaxassisni tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlari majmuasining umumiy maqsadlari;
- sohaga oid fanning (dasturning) umumiy maqsadlari;
- boblar va mavzularning maqsadlari¹³.

Mashg'ulotning maqsadlari va boshqacha qilib aytganda, tizimning har bir tarmog'i, ta'lim tizimining har bir elementi nisbatan xususiy maqsadni amalga oshira turib, umumiy maqsadni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Ta'lim tizimining yagona maqsadi uning tarmoqlari va elementlari maqsadlari tuzilmasining yoyilmasi ko'rinishida aks ettiriladi va uning eng yuqori cho'qqisi asosiy pirovard maqsadni ifodalaydi. An'anaviy ta'lim tizimi sharoitlarida maqsadning ta'lim mazmuniga yo'naltirilganligi maqsad va mazmunning o'zaro mos bo'lishiga olib keladi:

- maqsad - fanning asoslarini o'zlashtirish;
- mazmun - bilim va ko'nikmalarda ifodalangan ana shu asoslarning o'zi¹⁴.

Zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim tizimida esa, maqsad - insonning shaxsiy imkoniyatlarini o'stirish, ilgari ma'lum bo'lmagan predmetlarga oid va ijtimoiy vaziyatlarda o'zining kompetentligini namoyon qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat, bunda mazmun - shu maqsadga erishishni ta'minlovchidir.

Pedagogik texnologiya didaktik yoki metodik tizimning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, metodik tizim nimani o'qitish, nima uchun o'qitish, qanday o'qitish kabi masalalarni hal etishga qaratilgan bo'lsa, o'qitish texnologiyasi, eng

¹² Маматқулов А.Н. Касбий таълимда талабалар ижодкорлигини ривожлантириш. “Замонавий таълим” илмий-амалий оммабоп журнал – Тошкент, 2019. №12(85). 11-17 б.

¹³ Горский Д. П. и др. Краткий словарь по логике. М., „Просвещение“, т 2013.126.

¹⁴ Рахимов З.Т. - Талабалар мустақил таълимини ташкил этиш методикаси, Монография, Тошкент Ворис нашриёти – 2019 й. 116 б.

avvalo, qanday qilib samarali o'qitish mumkin degan savolga javob beradi. Shunday qilib, har qanday o'qitish texnologiyasining asosiy bo'g'ini pirovard natijani aniq belgilash va unga erishish aniqligini nazorat qilishdan iborat. Umuman olganda, shunchaki jarayon (sanoatda yoki boshqa sohalarda) texnologiya bo'lavermaydi, qachonki u oldindan rejalashtirilgan, yakuniy natija bo'lgan mahsulotning xususiyatlari va unga erishish vositalari oldindan aniqlab olingan, ushbu jarayonni amalga oshirish uchun barcha shartsharoitlar maqsadli ravishda shakllantirilgan va nihoyat bu jarayon "ishga tushirilgan" bo'lsagina texnologiya maqomiga ega bo'ladi.

Faollashtirilgan (kontekstli) ta'limda o'qitishning yangi zamonaviy shakllari hamda an'anaviy shakllari uyg'unlashtirilgan holda mavjud bo'lib, o'quv faoliyatida real kasbiy faoliyatga xos bo'lgan vaziyatlarni modellashtirish imkoni yaratiladi, bunda ta'lim va tarbiya jarayonlari orasidagi uzilish barham topadi, talaba o'quv va bo'lajak kasbiy faoliyatlari sub'yekti sifatida o'zini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, zamonaviy mutaxassis modeliga mos keladigan kasbiy kompetentligi shakllanib boradi¹⁵.

Umuman olganda yangi tipdagi ta'lim tizimida o'quv ma'lumotlari ko'rinishida ifodalangan ilgari tajribalarni o'zlashtirishga qaratilgan ta'limdan bo'lajak kasbiy faoliyatda duch kelinadigan vaziyatlarga tayyor bo'lishga qaratilgan, umuman olganda kelajakka yo'naltirilgan ta'limga o'tish ko'zda tutiladi. Ta'lim oluvchi faoliyatining maqsadi axborot ko'rinishiga ega bo'lgan ijtimoiy tajribaning ma'lum bir qismini o'zlashtirish emas, avvalambor bilimlardan foydalangan holda bo'lajak kasbiy faoliyatini amalga oshira bilish hamda butun umri davomida yangi bilimlarni egallab bora olish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining ijodkorligini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shartlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- o'zlashtirilgan ijtimoiy tajribalarni qayta ishlash, izlanuvchanlik va ijodkorlik

faoliyatlarida namoyon bo'ladigan aniq ifodalangan kasbiy yo'naltirilganlik, bilimlarni egallash faolligi;

- pedagogik faoliyatda ko'p uchraydigan har qanday nostandart vaziyatlarda mustaqil ravishda qaror qabul qila olishga, shuningdek, yaxlit pedagogik jarayonning barcha voqea va hodisalarini, dalillarini tahlil qila bilishga asos yaratadigan ilmiy tafakkurni rivojlantirish;

¹⁵ Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Пед. фан. докт. ... дисс. – Т., 2012.–264 б.

• jamiyat madaniyatini va jahon madaniyatni egallaganlik, ta'lim olish jarayonini anglaganlik, o'zining pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish, o'zo'zini rivojlantirishga yo'nalganlik, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish kabi keng doirani o'z ichiga olgan mustaqil ta'limni tashkil etish;

• talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni individuallashtirish orqali aqliy va amaliy faoliyatida o'zining individual uslublariga ega bo'lish imkonini beradigan ta'limni tashkil etish¹⁶.

Ijodkorlikni rivojlantirishni muammoli o'qitish jarayonida amalga oshirish ham maqsadga muvofiq bo'ladi, buning mohiyati kasbiy faoliyatni yaxlit tizim sifatida ko'rish, yangi muammo va masalalarni hal eta bilish tajribalarini shakllantirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladigan kasbiy faoliyat elementlarini ta'lim jarayoniga kiritishdan iborat.

Ijodkorlikni rivojlantirish uchun bugungi kunda kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda bo'lajak mutaxassislardan quyidagi sifatlar talab qilinadi:

- ular yuqori darajadagi bilim va kasbiy ko'nikmalar asosida;
- ular pedagogik faoliyatni va ishlab chiqarish jarayonini tahlil qila oladigan;
- yangi nostandart g'oyalarni ilgari sura oladigan;
- rasional, zamonaviy talablarga javob beradigan metod va vositalarni;
- kasbiy va ilmiy axborotlarni o'zlashtirishning yangi usullarini amaliyotda qo'llay oladigan - bo'lishi lozim¹⁷.

Talabalarning kasbiy sifatlarini shakllanishi o'qitish jarayonida shaxs ijodkorlik faoliyatining faolligi bilan to'g'ridanto'g'ri bog'langan. Oliy ta'lim tizimida zamonaviy o'qitishning eng muhim vazifasi bu talabalarning kasbi bo'yicha xabardorligini shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishdir. Ijodkorlik faoliyati uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rishni, erudisiyani, qobiliyatlarni talab qiluvchi faoliyat hisoblanadi. Ijodkorlik faoliyati – inson faoliyati asosi, barcha moddiy va ma'naviy boyliklar manbaidir. Bo'lajak mutaxassisning muvaffaqiyatli ijodkorlik faoliyati garovi zarur axborotni o'z vaqtida tanlab olishi hisoblanadi. Ijodiy fikrlar va farazlarni generasialashga undovchi asosiy omillar ehtiyojlari hisoblanadi. Bu ehtiyojning sifati bilimlar va malakalar bilan qurollanganlik bilan belgilanadi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarining kirib kelishi sababli mamlakatimiz ta'lim jarayoniga deyarli bir asrdan ortiq hukmronlik qilgan metodikaning mohiyati va yangidan kirib kelgan texnologiya tushunchasining mohiyatini bir-biridan farqlash, tushunish bo'yicha yuzaga kelgan bahslar hali ham

¹⁶ Петровский А.В. Основы теоретической психологии. М.: ИНФРА- 1998. 528 с.

¹⁷ Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – М.: Высшая школа, 1991. – 208 с.

davom etmoqda deyish mumkin¹⁸. Keys-stadi, o'quv loyihasi, sinkveyn, bumerang, tushunchalar tahlili, venn diagrammasi kabilarning bir o'rinda metod, yana bir Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta'lim texnologiyalari o'rinda texnologiya, ba'zan strategiya, ba'zan organayzer tarzida talqin qilinishi fikrimiz dalilidir. Umumta'lim maktablari va o'rta maxsus ta'lim uchun uzviylashgan o'quv dasturini tajriba-sinovdan o'tkazishda ham taqvim-mavzu rejalarda metod, usul, organayzer kabi atamalar farqlanmasdan keltirilgan edi. Shuni inobatga olgan holda texnologiya, strategiya, organayzer kabi atamalar mohiyatini ham oydinlashtirish zarur.

Texnologiya – ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun har bir mutaxassis tomonidan amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisidir (V. P. Shepel). Ta'rifga e'tibor qaratisa, texnologiya metodlarni o'z ichiga olishi, ya'ni metodlar texnologiyaning tarkibiy qismi ekanligi ma'lum bo'ladi. Metod esa aniq o'quv maqsadiga erishish yo'llari, usullarining jami deb qaraladi. Muayyan bir dars ana shu texnologiyalarning biri yoki bir nechta ishtirokida loyihalanishi mumkin. Shu o'rinda metodika va texnologiyaning farqlanishiga alohida ahamiyat qaratish zarur. "Metodika "Qaysi yo'l bilan o'qishda talab etilgan natijaga erishish mumkin?" degan savolga javob bersa, texnologiya "Uni qanday qilib kafolatlash mumkin?" degan savolni o'rtaga tashlaydi.

Har xil adabiyotlarda har xil sharhlanayotgan atamalarni tartibga solish zarur. Klaster metodmi yoki strategiyami? "Qarorlar shajarasi metodi" va "Qarorlar qabul qilish texnologiyasi" bir-biriga tengmi? "Zig-zag" strategiyami yoki metod? Venn diagrammasi-chi? Inset strategiyasi... Pedagogik texnologiyalar ancha tomir otayotgan bo'lsa ham metod, texnologiya, strategiya, organayzer atamalari farqlanmasdan qo'llanilishi kuzatilmoqda.

Bizningcha, "BBB", "T" chizma, "Sinkveyn", "Bumerang", "Idrok xaritasi", "Bu bizniki", "Intelektual ring", "Blits so'rov", "Teskari test", "Chalkash ma'lumotlar", "Klaster", "Zanjir", "Xatosini top", "Tushunchalar tahlili", "Aqliy hujum", "Kim topqir", "Bilimdonlar daraxti", «FSMU», «Venn diagrammasi», «Guruhlarda ishlash», "Sayohat", "SWOT", "Qorbo'ron", "Zinama-zina" kabilar interfaol metodning alohida bir usullari sifatida qaralishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. "BBB", "T" chizma, "Bumerang", "Idrok xaritasi", "Qolipga mos gap tuzing", "To'plamni tasniflaymiz", "Klaster", "Tushunchalar tahlili", "Bilimdonlar daraxti", «Venn diagrammasi», "Zinama-zina" kabilar jadvallar tarzida tayyorlanib darsda

¹⁸ 238 "Ўзбек тилини ўқитиш методикаси" фани дастури (тузувчилар: М.Сапарниязова, Т.Юсупова). – Toshkent, 2017. 3-b.

foydalaniladigan bo'lsa, ular organayzer bo'la oladi. U holda ular usul emas, balki ta'lim vositasi ham bo'lishi kerak.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, bizningcha, fanning metodik ta'minotini yaratishni jadallashtirish uchun, avvalo, yuqorida sanab o'tilgan atama va tushunchalarni aniqlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2016.
2. Mirziyoyev Sh..Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz”. T.1. –T.: “O'zbekiston”, 2017-yil.
3. Mirziyoyev Sh. “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”. T.2. –T.: “O'zbekiston”, 2018-yil.
4. Mirziyoyev Sh. “Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi”. T.3. – T.: “O'zbekiston”, 2018-yil.

II. HUQUQIY-ME'YORIY HUJJATLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: O'zbekiston. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. №6. 70-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11- avgustdagi “Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PF-5148-sonli Farmoni. www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyati, rivojlanish, erkinligi kafolatlari to'g'risidagi tahliliy ma'lumot. (O'zMAA. 2013-yil, 1 iyun). www.infoCOM.UZ.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasining umumta'lim muassasalarida “Mediata'lim” o'quv dasturini ishlab chiqish va tatbiq etish to'g'risida”gi Farmoyishi. Xalq so'zi, 2012-yil. 18-dekabr soni.
4. Исраилова, М. Н. (2016). Новые педтехнологии изучения латинского языка в медицинских вузах. *Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения*, (53), 66-71.
5. Исраилова, М. Н. (2017). Формирование принципов устойчивого развития в обучении иностранным языкам. *Международные научные исследования*, (1), 161-163.

6. Исраилова, М. Н. (2022, March). К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ. In *Конференция состоялась* (Vol. 5, p. 414).

7. Israilova, M. N. (2017). New Pedagogical Technologies of Studying Latin in Medical Schools. *Eastern European Scientific Journal*, (1).

8. Israilova, M. N., & Yuldasheva, D. Y. (2021). PECULIARITIES OF TEACHING LATIN LANGUAGE AT MEDICAL UNIVERSITIES. *Eastern European Scientific Journal*, (2).

9. Исраилова, М. Н. (2021, November). ТЕХНОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 1, No. 2).

10. Исраилова, М. Н., Юлдашева, Д. Ю., & Сайфуллаева, Л. С. (2021). Педагогические технологии на занятиях по латинскому языку в медицинском вузе. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 47-49.

11. Исраилова, М. Н. (2019). Принципы преподавания латинского языка в медицинском вузе. *Academy*, (12 (51)), 58-60.

12. Исраилова, М. Н. (2022, August). К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ: Исраилова Махсуда Нигматуллаевна, Доцент кафедры Латинского языка ТГСИ. In *Научно-практическая конференция*.

13. Исраилова, М. Н., & Сайфуллаева, Л. С. (2022, August). ТИББИЁТ ТАЪЛИМ МУАССАСИДА ЛОТИН ТИЛИНИ ЎЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ-МАДАНИЙ РИВОЖЛАНИШ: Исраилова МН доцент PhD, Сайфуллаева ЛС ассистент Тошкент давлат стоматология институти Sayfullayevalola1@ gmail. com. In *Научно-практическая конференция*.

14. Исраилова, М. Н. (2022, August). ЭФФЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ИЗУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ: Исраилова МН, доц. PhD Ташкентский Государственный Стоматологический Институт oydinboymatova80@ gmail. com. In *Научно-практическая конференция*.

15. Исраилова, М. Н. (2018). ИННОВАЦИИ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ ПОСРЕДСТВОМ ВНЕДРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 68-69).

16. Исраилова, М. Н., Абидова, М. И., & Юлдашева, Д. Ю. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА ДЛЯ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ

КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 422-425.

17. Исраилова, М. Н., Абидова, М. И., & Сайфуллаева, Л. С. (2022). ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 426-429.

18. Исмоилова, М. Н., & Кобиров, К. Х. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. *ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп*, 60-62.

19. Исраилова, М., Сайфуллаева, Л., & Дулдулова, Н. (2023). Lotin tilini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o'rni. *Общество и инновации*, 4(2), 148-151.

20. Nig'matillayevna, I. M. (2022). BENEFITS OF USING VIDEO IN ELT. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 6, 7-12.

21. Nigmatullaevna, I. M. THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING MEDICAL LATIN.

22. жери Контакттыктык, Ж. Кызыл-Кыя шаарынын участкалык шайлоо комиссияларынын сапаттык курамы. *Восток*, 14, 1.

23. Беляева, Н. Л. (2021). ШКОЛЬНАЯ СЛУЖБА ПРИМИРЕНИЯ КАК СОВРЕМЕННАЯ ФОРМА ПРОФИЛАКТИКИ. In *БЕЗОПАСНОЕ ДЕТСТВО КАК ПРАВОВОЙ И СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ КОНЦЕПТ* (pp. 27-30).